

KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISH JARAYONLARINI HISOBGA OLISH

Nahalboyev Lazizjon Bazarovich

Jizzax Sambxram universiteti o'qituvchisi

lazizbazarovich@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16908442>

Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va hisoblash tizimining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan. Maqolada ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish, xarajatlarni tahlil qilish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash uchun hisob tizimlarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqarish jarayonlarini hisobga olishni takomillashtirish orqali korxona foydasini oshirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi. Shu bilan birga o'z o'rnida korxonaning iqtisodiy rivojlanishiga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Ishlab chiqarish hisobi, xarajatlarni boshqarish, xarajatlarni kamaytirish, monitoring qilish, xarajatlarni tahlil qilish, resurslar, xarajatlarning nazorat qilish jarayonlari.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ishlab chiqarish korxonasi yoki tadbirkor yuqori foyda olish va uni ko'paytirishni maqsad qiladi. Uning oladigan foyda miqdori esa ishlab chiqargan mahsuloti yoki ko'rsatayotgan xizmatining hajmiga, sifatiga, tannarxiga va baholar darajasiga bog'liq bo'ladi. Korxonalarning bozorga mahsulot etkazib berib, foyda olishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-harajatlar darajasi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonlari har bir tashkilotning asosiy faoliyatini belgilovchi muhim komponent hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni samarali boshqarish va nazorat qilish, xarajatlarni tahlil qilish va resurslardan optimal foydalanishni ta'minlash uchun hisob tizimlari ajralmas vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini yaxshilash, balki tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishga ham yordam beradi.

Ishlab chiqarish jarayoni deganda ishchi kuchi va mehnat vositalari yordamida mehnat predmetlaridan yangi mahsulotlar yaratish tushuniladi. Ushbu jarayon o'z ichiga turli texnologik operatsiyalarni oladi, bu operatsiyalarni bajarish esa turli harajatlarni amalga oshirishni ta'qozo etadi. Ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasi bo'lib tayyor mahsulot hisoblanadi. Tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga ketgan moddiy harajatlar, mehnatga xaq to'lash harajatlari, ishlab chiqarish vositalarining amortizatsiya harajatlari va boshqa ushbu jarayonga tegishli harajatlar ishlab chiqarish harajatlari, yaratilgan mahsulot qiymatiga kiritilgan harajatlar esa tayyor mahsulotning tannarxini tashkil qiladi. Shuni ta'kidlash joizki korxona tomonidan bajarilgan ishlar, masalan qurilish-montaj ishlari, ko'rsatilgan xizmatlar, masalan turistlarga ko'rsatilgan yotoqxonalar va boshqa xizmatlar yoki auditorlik xizmati ham ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi. Bunday ishlab chiqarish jarayonining natijasi bo'lib bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat xajmi hisoblanadi, ularga sarflangan harajatlar bajarilgan ish yoki xizmatning tannarxini tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan aloqador sintetik schotlar to'g'risida qisqacha tavsif berib chiqish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayoni hisobining vazifalari va ahamiyati haqida talabalarni tanishtirib chiqamiz. Ishlab chiqarish jarayonining pirovard natijasidan tayyor mahsulotlar olinadi. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni biznes-reja va shartnoma-kontraktatsiya asosida amalga oshirilib, ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlar hajmi va reja tannarxi belgilanadi. Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlari va olingan mahsulotlar

aks ettiriladi hamda mahsulotlarning haqiqiy tannarxi hisob kitob qilinadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini hisobga olishning normativ, buyurtmali, jarayonli va aralash usullari mavjud.

Normativ usul - Bu usulda ishlab chiqarish resurslari uchun belgilangan normalar asosida hisob yuritiladi. Misol uchun, 1 tonna sement ishlab chiqarish uchun qancha xomashyo, elektr energiya va ishchi kuchi sarflanishi oldindan belgilanadi. Amaldagi sarflar me'yorlar bilan taqqoslanib, farq aniqlanadi.

Buyurtma (zakaz) usuli - bu usulda alohida buyurtma asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda qo'llaniladi. Masalan, mebel sexida mijoz buyurtmasiga qarab stol yoki shkaf tayyorlansa, barcha xarajatlar aynan shu buyurtmaga yoziladi.

Jarayon (protsess) usuli - bu usulda ommaviy ishlab chiqarish korxonalarida (masalan, oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo sanoatida) xarajatlar ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha taqsimlanadi. Masalan, paxta-to'qimachilik kombinatida - avval ip yigirish, keyin mato to'qish, oxirida tayyor kiyim tikish bosqichlari bo'yicha hisob yuritiladi.

Aralash usuli - bu usulda ba'zi hollarda yuqoridagi usullar birgalikda qo'llaniladi. Masalan, avtomobil zavodida - asosiy detallar ishlab chiqarishda jarayon usuli, yakuniy yig'ishda esa buyurtma usuli ishlatilishi mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: natural va pul ifodasida ishlab chiqarishning haqiqiy hajmini aniqlash. Bunda jami ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori kabi, ular ayrim turlarining ham miqdori aniqlanadi; ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarni aniqlash va mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash. Buning uchun korxonaning jami ishlab chiqarilgan mahsulotga qilgan xarajatlari hamda alohida mahsulot turlarining tannarxi aniqlanadi. Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish uchun maxsus schotlar tayinlangan. Ularning asosiylaridan biri 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni aks ettirish va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ushbu schotning debet tomonida mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan barcha xarajatlar to'planadi, uning kreditida esa ishlab chiqarilgan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha baholanib aks ettiriladi.

Korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlar ishlab chiqarilib, ularni tayyorlash ma'lum xarajatlarni talab etadi. Bunday xarajatlar sirasiga sarflangan materiallar, yoqilg'i va boshqa moddiy zaxiralar qiymati, ishchilarning ish haqi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, asosiy vositalar eskirishi va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi va boshqalar kiradi. Nomlari yuqorida qayd qilingan xarajatlardan tashqari korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari ham amalga oshiriladi. Ular boshqaruv va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning ish haqlari, binolarni isitish va yoritish xarajatlari va boshqalardan iborat. Qilingan xarajatlarning pul ifodasidagi jami summasi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini tashkil etadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini hisoblash buxgalteriya hisobining muhim uchastkalaridan biri hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish rezervlarini topish, materiallar, pul mablag'lari va mehnat resurslari ustidan muntazam nazorat o'rnatishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonini hisobga olish uchun maxsus schotlar tayinlangan. Ularning asosiylaridan biri 2010-«Asosiy ishlab chiqarish» schoti bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni aks ettirish va ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ushbu schotning debet tomonida mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan barcha xarajatlar

to'planadi, uning kreditida esa ishlab chiqarilgan mahsulotlar reja tannarxi bo'yicha baholanib aks ettiriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, maqolada korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini hisobga olishning muhim jihatlari va uning biznes samaradorligiga ta'sirini ko'rib chiqildi. Aniqlik va samarali hisob tizimlari xarajatlarni optimallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlarini hisobga olish – bu nafaqat buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi, balki menejmentning samarali vositasidir. Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonlari hisobi to'g'ri tashkil etilsa, eng avvalo mahsulot tannarxini kamaytirish, foydani oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, bozor sharoitida raqobatbardosh bo'lishga zamin yaratiladi. Shu nuqtai nazardan har bir korxona o'z ishlab chiqarish jarayonlarini muntazam hisobga olib, iqtisodiy tahlil asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishi lozim.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-maydagi PQ-3777-sonli "Buxgalteriya hisobi va audit tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. R.D.Dusmurov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. –T., Darslik. 2020 yil.
4. To'rayev M.M. Korxonalar iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, Darslik. 2020 yil.

INNOVATIVE
ACADEMY